ONA TILI ADABIYOT

1. *"Kichkina Shahzoda beozorgina uxlab yotibdi, feruza guliga shunchalar sadoqatliki, odamning beixtiyor ko`ngli erib ketadi, gulining yodi-xayoli sham shu'lasining sharpasidek uni biron zum, hatto uyqusida ham tark etmaydi..."*
Berilgan gap tarkibida ismlarning munosabat shakllari necha o`rinda ishtirok etgan?
A) 14 o`rinda B) 12 o`rinda
C) 15 o`rinda D) 10 o`rinda

2. Qaysi asarda, asosan, o`z mulkidan keladigan daromadlar hisobiga yashaydigan, faqat do`ppi tor kelib qolgan paytlardagina yordam so`rab fuqarolariga murojaat qiladigan podshoh obrazini uchratamiz?

A) "Bulbul"
B) "Gulliverning sayohatlari"
C) "Uch og`a-ini botirlar"
D) "Kichkina shahzoda"

3. Quyidagi gapda ochiq bo`g`inlarning nechtasi keng unli bilan tugagan?
Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Aniq bilursankim, ilm bepoyon.
A) 4 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 2 ta

4. Janni Rodarining "Qutbdagi Gunafsha" ertagida ona ayiq Gunafshani nimaga o`xshamasligini aytadi?
A) qush B) baliq C) gul D) muz

5. Boboxon goh o`chirg`ichga, goh bug`doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolasiga, goh Tal'atga qarab hang-mang bo`lib qolgan edi.
Yuqoridagi gapdan so`z yasovchilarni ajrating.
A) -xon, -g`ich, -zor B) -ayotgan, -xon, -g`ich
C) -g`ich, -zor D) -g`ich, -zor, -ib

6. Holat fe'llari berilgan qatorni aniqlang.
A) taralmoq, porlamoq, jimirlamoq
B) ikkilanmoq, tasvirlamoq, eshitmoq
C) eshitilmoq, yiqilmoq, nutq irod etmoq
D) o`smoq, unmoq, yugurmoq

7. Qanchalik jangovar hukmdor, mohir jangchi bo`lmasin, el-ulusning fikrini tinglaydigan, unga quloq soladigan odam sifatida tasvirlangan qahramonni toping?
A) "Mirzo Ulug`bek"da Mirzo Ulug`bek
B) "Yulduzli tunlar"da Bobur
C) "Mardlik afsonasi"da To`maris
D) "Sohibqiron"da Amir Temur

8. Arab tilidan o`zlashmagan so`zlar qatorini belgilang.

A) inson, ma'no, majbur
B) aql, bilim, ro`za
C) san'at, a'lo, moddiy
D) san'at, fikr, ilm

9. Qaysi xalq qahramoni o`zini lochinga, yorini suqsurga o`xshatadi?
A) Rustamxon B) Kuntug`mish
C) Ravshanbek D) Alpomish

10. Qaysi gapda imlo qoidalariga zid yozilgan so`zlar soni nisbatan ko`proq?
A) Memorning hayol surub giyoxvandlardek qotib qolganini ko`rgan Xorunbek....bu, extimol, achchiq a'lamning oqibatidir deb o`ylardi.
B) Kattasi xam uyg`onib ketdi, shekilli, qo`shilishib yig`lashga tushdi.
C) Nutiq odobi va til madaniyatiga rioya qilish nafaqat ziyolilarning, balki har qanday kasbu kor egasining burjidir.
D) Dengizchilar sayoxat qilib yurib, hilvat bir orolga borib qolishdi.

11. Nodira qaysi g`azalini "sharqdan esadigan yoqimli shamoldan yoriga jo`natish uchun yozganligi"ni g`azal maqtasida tilga oladi?
A) "Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat"
B) "Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit"
C) "Kel, dahrni imtihon etib ket"
D) "Bo`ldi ul fursatki, tarki suhbati olam"

12. Shahar tongni ko`zda uyqu bilan kutib oldi.
Ma'no ko`chish turini aniqlang.
A) metafora B) sinekdoxa
C) metonomiya D) vazifadoshlik

13. So`zlarning eng kichik ma'noli qismlarini o`rganadigan bo`lim...
A) Fonetika B) Morfemika
C) Fonologiya D) Semasiologiya

14. Issiq shamolni bildirgan so'zni toping?
A) samum, garmsel B) sarsar, izg'irin
C) buran, burya D) uyurma, girdbod

15. Qaysi asar qahramoni "ko`rgazmaga qo`yilaturgan antiqa maxluqlardan" edi?
A) "Mehrobdan chayon" romanida Solih Mahdum
B) "O`tkan kunlar" romanida Yusufbek Hoji
C) "Qutlug` qon" romanida Mirzakarimboy
D) "Kecha va Kunduz" romanida Razzoq So`fi

16. Shakldosh bo`lmagan so`z shakldosh qo`shimcha qo`shilishi natijasida shakldosh so`z yuzaga kelgan javobni toping.
A) o`sma, yashirin B) kechik, o`sma
C) terma, yig`ma D) to`lat, tiniq

17. O`z ma'nosida ishlatilgan ko`p ma'noli so`z qaysi javobda berilgan?

A) Zilola xushchaqchaq, ochiq qiz.
B) Ular judayam qalin do`st edilar.
C) Hovlidagi gullarning go`zalligidan zavqlandi.
D) O`tkir zehnli bola masalani tez yechdi.

18. ***Muso halim nosih bo`lib so`zlar aytti,***
Quloq tutmay ul ikkisi bo`ldi murdor.
Ahmad Yassaviy hikmatlarida "ul ikkisi" deb kimlar nazarda tutilgan?
A) Tarso, Xorun B) Qobil, Qorun
C) Sulaymon, Qorun D) Fir'avn, Qorun

19. Lekin// Me'morning // avvalo// raiyat // qolaversa// saltanat oldidagi mavqeyi// Xuroson-u Movaraunnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko`rishga yo`l qo`ymas edi.
Ushbu gapda nechta // belgisi o`rnida vergul ishlatiladi?
A) 4 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 2 ta

20. Shoirlarning quyidagi taxalluslaridan qaysi birining mazmuni – majozan aziz va mukarram ma'nosini ham bildiradi?
A) Puryoyvaliy B) Farog`iy C) Ozodiy D) Qitoliy

21. O`zligini anglashga bel bog`lagan har bir xalq va millat buyuk ajdodlari xizmatlarini e'zozlashni o`rniga qo`yadi, boshqalarga ham uni e'tirof ettiradi.
Tovush o`zgarishi yuz bergan yasama so`zlarni aniqlang.
A) 1 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 2 ta

22. Qaysi javobda sof o`zbekcha so`zlar o`rtasida o`zaro paronimlik berilgan?

A) shtab-shitob B) tire-teri C) tarif-ta'rif D) enlik-ellik

23. "Zarbulmasal" asaridagi "Sangpusht bilan chayon" hikoyatida quyidagi maqollardan qaysi biri ishlatilmagan?
A) Eshak o`yuni qirq yilda…
B) Ishonmagil do`stingga, somon tiqar po`stingga.
C) Yetim o`g`il saqlasang, og`zi-burning qon etar,
Yetim qo`zi saqlasang, og`zi-burning moy etar.
D) Oshnangdan top.

24. "Miyasi g`ovlab ketmoq" iborasining ma'nodoshlarini toping.
1) boshi shishmoq; 2) bosh suqmoq; 3) bo`ynini xam qilmoq; 4) boshi qotmoq; 5) bo`yin egmoq.
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 4, 5

25. Fitratning dramaturg sifatida yaratgan takrorlanmas asarlarini toping.
1) "Abo muslim", 2) "Oila", 3) "Arslon", 4) "Chin sevish", 5) "Temur sag`anasi", 6) "Rahbari najot", 7) "Munozara"
A) 1, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4, 6
C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 3, 4, 5

26. Kimning aqli ko`p bo`lsa, ayblari yashirin va do`stlari ko`p bo`ladi.
Ergashgan qo`shma gap turini aniqlang.
A) To`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gap
B) Hol ergash gapli qo`shma gap
C) Aniqlovchi ergash gapli qo`shma gap
D) Ega ergash gapli qo`shma gap

27. ***Tuproq ko`chalardan chopgan bolalik***
Yillar changi ichra asta yo`qoldi.
Bolalik ketdi-yu sho`x suhbatlarda
Uni kula-kula eslamoq qoldi.
Berilgan she'rda ismlar soni nechta?
A) 11 ta
B) 12 ta
C) 10 ta
D) 9 ta

28. Tilning ijtimoiy vazifasi qaysi qatorda to'liq ifodalangan?
A)Til so'z va qo'shimchalardan iboratdir.
B) Til kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv vositasi hisoblanadi.

C) Til Morfologiya va Sintaksis kabi bo'limlarga bo`lib o'rganiladi.

D) Til og'zaki va yozma tarzda namoyon bo'ladi.

29. *1) tilla, tish; 2) masala, yechmoq; 3) o`rtoqlar, suhbatlashmoq; 4) quvnoq, yashamoq; 5) shahrimiz, ko`chalar; 6) Salima, ko`rishish; 7) qizil, olma.*

Yuqoridagi so`z juftliklari orasida qo`shimchlar vositasida moslashuv usulida so`z birikmasi hosil qilish mumkin bo`lgan javoblarni toping.

A) faqat 5 B) 1, 5, 7
C) 1, 5, 6 D) 2, 5, 6, 7

30. Olqor — …?
A) erkak tuya B) ikki yashar ot
C) yovvoyi kiyi D) yovvoyi tog` echkisi

Tuzuvchi: SOJIDA GANIYEVA